

Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuqlarimiz asosi



Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 9-may – Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda

Ajdodlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, yurtimiz tinchligi va ravnaqi yo'lida xizmat qilgan keksalarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatish mamlakatimizda milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keng nishonlanayotgan Xotira va qadrlash kuni mazmun-mohiyatida ham ana shunday ezgu tamoyillar o'z ifodasini topgan.

Bu ayyomda bugungi tinch-osoyishta hayot, to'kinlik va farovonlikka qanday og'ir sinov va mashaqqatlar evaziga erishilgani xayolimizdan o'tadi. Shu yo'lda qurbon bo'lgan millionlab yurtdoshlarimiz xotirasiga ta'zim qilamiz. Bizga nasib etgan mustaqillik, tinchlik va osoyishtalikning ahamiyatini yanada teran anglaymiz.

Keksa avlod vakillarining ko'nglini ko'tarish, salomatligini mustahkamlash, ular uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish davlatimizning doimiy e'tiborida. Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 18-apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni faxriylarimizga ehtiromning yana bir ifodasi bo'ldi. Mazkur farmonga muvofiq urush qatnashchilariga pul mukofotlari va bayram sovg'alari tantanali ravishda topshirildi. Ularning holidan xabar olinib, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi.

8-may. Poytaxtimizdagi Xotira maydoni har qachongidan gavjum. Bu yerga urush va mehnat faxriylari, senatorlar va deputatlar, hukumat a'zolari, harbiylar, jamoatchilik vakillari tashrif buyurgan.

Maydon uzra mahzun musiqa taraladi.

Soat 9:00. Maydonga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kirib keldi.

Davlatimiz rahbari harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Prezidentimiz Ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

– Shu kunlarda yurtimizda, qishloq va shaharlarimizda, har bir oila va xonadonda kattayu kichik – barcha vatandoshlarimiz 9-may – Xotira va qadrlash kunini, Ulug' Vatan urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 71-yilligini keng nishonlamoqda, – dedi Islom Karimov ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatda. – Ana shu buyuk g'alabani qo'lga kiritishda mardlik va jasorat ko'rsatgan faxriylarimizni, front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizni tabriklash, ularga sihat-salomatlik, uzoq umr tilash men uchun katta sharafdir.

Shu bilan birga, urush maydonlaridan qaytmagan, mana shunday musaffo osmon, tinch va osoyishta hayot uchun jon berib, qurbon bo'lgan yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasi oldida bosh egib ta'zim qilish barchamiz uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Bugun muqaddas maskanga aylanib qolgan mana shu Xotira maydonida turib, jahon tarixidagi eng qonli, mislsiz qurbonlar, musibat va ofatlar olib kelgan urushda erishgan g'alaba kunini nishonlar ekanmiz, oradan shuncha yillar o'tganiga qaramay mamlakatimizda bironta odam yo'qki, o'sha dahshatli urushni, uning asratlarini esidan, xayolidan chiqargan bo'lsa.

Shuning uchun ham bu qutlug' ayyomni, bir tomondan, katta g'urur va iftixor bilan, ikkinchi tomondan, ko'zimizda yosh bilan kutib olamiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz, dedi davlatimiz rahbari.

Tarixda buyuk sana bo'lib qoladigan bu voqea, ya'ni fashizm ustidan g'alaba qozonishda mardlik va matonat ko'rsatgan ko'pmillatli ming-minglab insonlar qatorida 338 nafar yurtdoshimiz yuksak qahramonlik unvoniga sazovor bo'lgani, qancha-qancha otalarimiz, bobolarimiz o'z jonini fido qilib, jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani qalbimizga haqiqatan ham faxr tuyg'usini bag'ishlashi tabiiydir.

Lekin fashizm balosiga qarshi kurashda xalqimizning qo'shgan eng katta hissasi haqida gapirganda, yuragimizda umrbod bitmaydigan yara, asorat bo'lib qoladigan og'ir yo'qotishlar yana va yana xayolimizdan o'tadi.

Bu borada quyidagi raqamlarni olib kelish o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Urush boshlangan paytda O'zbekistonimiz aholisi 6,5 million kishiga yaqin bo'lgan bo'lsa, shundan 1,5 million kishi, ya'ni qurol ko'tarishga qurbi yetadigan odamlar urushda qatnashgan. Ularning orasidan 500 mingdan ko'prog'i jang maydonlarida halok bo'lganini, yana qancha-qanchasi mayib-majruh bo'lib qaytgani, qanchasi bedarak yo'qolganini hisobga oladigan bo'lsak, bu g'alaba bizga naqadar qimmatga tushgani o'z-o'zidan ayon bo'ladi, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

O'ylaymanki, har qaysi xalqning bag'rikengligi va olijanoblighi, kerak bo'lsa, odamiyligi va insonparvarligi nafaqat o'z yaqinlari, balki begona odamlarning boshiga musibat tushganda ulardan o'z mehri va yordamini ayamassligida yaqqol ko'rinadi, sinovdan o'tadi.

▪ Mehr-oqibat – xalqimizning eng oliy, noyob fazilati. Yurtdoshlarimiz front hududlaridan ko'chirib keltirilgan bir millionga yaqin bolalar, ayollar va qariyalarni qabul qilgani, ularga boshpana bergani, hatto oxirgi burda nonini ham ular bilan baham ko'rgani, "Sen yetim emassan" deb, ularni o'z bag'riga olib, mehr-muruvvat ko'rsatgani xalqimizning odamiylik fazilatlarini, olijanobligining amaliy namoyoni bo'ldi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Hech shubhasiz, inson, millat va xalq tarixiy xotira tuyg'usi bilan tirik va barhayotdir, dedi Islom Karimov. O'tganlarning xotirasini esga olish, ularning xotirasi oldida hurmat bajo keltirish xalqimizga xos azaliy qadriyat bo'lib kelmoqda. Jang maydonlarida Vatan uchun, bugungi va ertangi avlodlarning yorug' kunlarga yetishi uchun jon bergan, o'zini fido etgan insonlar xotirasini yodga olsak, bugun hayot bo'lgan faxriylarimizga qancha hurmat-ehtiram va e'tibor ko'rsatsak, hech qachon kam bo'lmaymiz.

Aslida, sodda qilib aytganda, tarix – bu xotira degani, o'tgan ajdodlarning shonli ishlari, qahramonliklarini eslash, o'tmish voqealaridan to'g'ri xulosa chiqarib yashash deganidir.

Shularning barchasini inobatga olib, biz bundan 17-yil oldin mamlakatimizda 9-may sanasini Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilib, poytaxtimiz Toshkent, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarda Xotira maydonlari barpo etib, bu maydonlarda Motamsaro ona haykalini o'rnatdik. Boshqacha aytganda, xotira va qadrlash degan, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro bog'langan ikkita ezgu tushuncha ayni shu nomda o'zining yorqin ifodasini topdi.

Vaqt o'tishi bilan, qabul qilgan bu qarorimiz naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Xalqimizning bu maskanlarga kelib, o'tganlarga hurmat-ehtiram ko'rsatishi yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Bu maydonlar haqiqatan ham muqaddas ziyoratgohlarga aylanib, ma'naviy hayotimizni chuqur ma'no-mazmun bilan to'ldirmoqda, dedi Yurtboshimiz.

Insoniyat tarixidagi eng mudhish va beshafqat, behisob yo'qotishlarga olib kelgan urushni boshidan kechirgan xalqimiz doimo bitta fikr bilan yashaydi: bunday yovuz ofat hech qachon qaytmasin, ostonamizga yaqin kelmasin. Bizga tinchlik kerak, omonlik kerak. Odamlarimiz har qanday davralarda, to'y-ma'rakalarda Yaratgandan avvalo shuni so'raydi.

Bunday qat'iy qarashlar ko'pni ko'rgan xalqimizning ongu tafakkuriga juda chuqur kirib

borgan va yoshu qari barcha odamlarimiz tinchlikning mohiyati va ahamiyatini, qadr-qimmatini teran anglab yetgani hammamizga ayon.

Buning ustiga, dunyoda tobora keskinlashib borayotgan qarama-qarshiliklarni, yaqin va uzoq atrofimizda qonli to'qnashuvlar kuchayib borayotganini, bir so'z bilan aytganda, bunday ofatlar tinchlik va barqarorlikka nisbatan o'ta jiddiy xavf va tahdid solayotganini aholimiz juda katta xavotir bilan kuzatmoqda.

Bizga qo'shni Afg'onistonda 35-yildan buyon beqaror vaziyat hukm surmoqda va hali-beri uning oxiri ko'rinmayapti. Ekstremizm, terrorizm deb nom olgan, tobora kengayib borayotgan xatarlar, fashizm degan balo yana maydonga chiqayotgani barcha-barcha yurtdoshlarimizda tashvish uyg'otmoqda.

Bunday murakkab va tahlikali vaziyat, boshimizdan kechirayotgan shiddatli zamon, so'zsiz, barchamizdan doimo sezgir, ogoh va hushyor bo'lib yashashimizni talab qilmoqda, dedi Prezidentimiz. "O'z uyingni o'zing asra!" degan shior yurtimizda yashayotgan har qaysi insondan hamon uchrab turadigan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan xalos bo'lishni, eng muhimi, yon-atrofimizda bo'layotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashashni bugungi kunda eng dolzarb masala sifatida oldimizga qo'ymoqda.

Ana shunday keskin vaziyat davlatimizdan, jamiyatimizdan xavfsizlikni mustahkamlash, har qanday balo-qazolarning yurtimizga kirib kelishining oldini olish, chegaralarimizning daxlsizligini, xalqimizning tinch-osoyshta hayotini himoya qilish maqsadida zamon talab qiladigan, zarur choralarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Shular qatorida:

O'zbekiston Qurolli Kuchlarining salohiyatini yanada oshirishga e'tiborimizni kuchaytirish;

O'zbekistonimizning hech qanday harbiy blokka qo'shilmasligi va mamlakatimiz hududida chet davlatlarning harbiy bazalari joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo'lishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini qonun bilan mustahkamlab qo'yganimizni bugungi murakkab vaziyatda o'zimiz uchun eng ma'qul va to'g'ri yo'l, deb bilamiz, deya ta'kidladi Prezidentimiz.

Vatanimiz mustaqilligining 25-yilligini katta xursandchilik bilan nishonlashga ozgina vaqt qoldi.

O'zbekistonimiz ana shu tarixan qisqa davrda, qanday og'ir va mashaqqatli sinovlarni boshidan o'tkazmasin, uning bosib o'tgan yo'li, o'sish sur'atlari, qo'lga kiritgan yutuq va

marralari jahon miqyosida tan olingani va ko'pchilikning havasini tortayotgani barchamizni quvontirmoqda, qalbimizda g'urur-iftixor uyg'otmoqda.

Xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori oshib borayotganining hal qiluvchi mezonini va omili avvalo, mehnatsevar, mard va matonatli xalqimizning yuksalib borayotgan dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy va ijtimoiy faolligi, hayotga qarashi tobora o'zgarib borayotganida, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Qishloq joylarda qurilayotgan namunaviy uy-joylar xalqimiz hayot sifatini yanada yuksaltirmoqda. Bu harakat samarasida qishloqqa taraqqiyot kirib bormoqda, zamonaviy axborot texnologiyalari odamlar turmush tarzidan mustahkam o'rin egallamoqda. Bunday bunyodkorlik ishlari izchil davom ettiriladi.

Men yosh avlodimizga, mening bolalarimga qarata bo'sh kelmanglar, ertangi kun bizniki, marra bizniki, deb bejiz, asossiz aytmayman. Buning chuqur ma'no-mazmuni shundaki, vaqt, yillar o'tishi bilan bizning safimizni kim to'ldirmoqda? Avvalo, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega bo'lgan, yangicha, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimizning ertangi kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, o'zini namoyish etishga qodir bo'lgan navqiron o'g'il-qizlarimiz. Ko'zlari yonib turgan bunday yoshlarimizni yana qayerda – qaysi davlat, qaysi yurtda topish mumkin, deb ta'kidladi Islom Karimov.

Bugungi kunda uzoqni ko'zlagan maqsadlarimiz, vazifa va rejalarimizni ham aniqlab olganimiz, shu jumladan, mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti hajmi 2030-yilga borib ikki karradan ziyod ko'payishi barchamizda ertangi kunimizga katta ishonch bag'ishlaydi. Va yurtimizni yanada obod qilish, hayotimizni yuksaltirish bo'yicha dunyodagi eng taraqqiy topgan davlatlardan, erkin va ozod yashayotgan xalqlardan aslo kam bo'lmaymiz, inshoollo.

Fursatdan foydalanib, muhtaram faxriylarimizni, butun xalqimizni ushbu qutlug' bayram bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin, balo-qazolardan Yaratganning o'zi asrasin, dedi pirovardida Prezidentimiz.

* * *

Shu kuni Motamsaro ona haykali poyi gullarga burkandi. Turli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari Motamsaro ona haykali poyiga gulchambarlar qo'ydi.

Xotira maydoni oqshomga qadar yurt tinchligi va ozodligi, avlodlarning porloq istiqboli uchun jonini fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo etish uchun kelgan ziyoratchilar bilan gavjum bo'ldi.

Sarvar O'rmonov (surat), O'zA

[Havola: http://www.uza.uz/uz/politics/tinchlik-va-osoyishtalik-barcha-yutuqlarimiz-asosi-08-05-2016](http://www.uza.uz/uz/politics/tinchlik-va-osoyishtalik-barcha-yutuqlarimiz-asosi-08-05-2016)